

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

“RIGA NORDIC UNIVERSITY”NING FARG‘ONA SHAHRIDAGI FILIALINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

(qaror nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

Respublika turizm tarmog‘i uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha [Harakatlar strategiyasiga](#) muvofiq:

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

1. Farg‘ona viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, “Riga Nordic University”ning Farg‘ona shahrida “Riga Nordic University”ning filialini (keyingi o‘rinlarda — Filial deb yuritiladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

2. Quyidagilar Filial faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

respublikaning turizm tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni xalqaro ta'lim standartlari darajasida tayyorlash;

turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohalarida amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish;

mutaxassislar hamda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini ta'lim va ilm-fanning uzviyligi hamda uzluksizligi, shuningdek, jahon ta'lim va ilm hamjamiyatiga majburiy integratsiya hisobiga rivojlantirish;

kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan yangi ta'lim dasturlari hamda o‘qitish shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;

pedagogik salohiyatni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, pedagogik texnologiyalarni va o‘qitish uslublarini faol takomillashtirish;

ta'lim va ilm-fan sohalarida xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda biznes-hamjamiyatlari bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash.

3. Belgilansinki:

Filial alohida mulk va mustaqil balansiga ega bo‘lgan yuridik shaxs maqomidagi notijorat tashkilot shaklida tashkil etilib, tasarrufidagi pul mablag‘lari va mulklari bo‘yicha o‘zining majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanadi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Filial “Riga Nordic University”ning (keyingi o‘rinlarda — Universitet) alohida tarkibiy bo‘linmasi hamda kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda, ta'limning kelishilgan asosiy yo‘nalish (mutaxassislik)lari bo‘yicha barcha darajadagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, jumladan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi;

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Filialda o‘qitish to‘lov-kontrakt asosida O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari talablarini e'tiborga olgan holda Universitet tomonidan tasdiqlangan o‘quv rejalar va dasturlar bo‘yicha ko‘proq ingliz tilida kunduzgi shaklda amalga oshiriladi;

(3-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

abituriyentlarni qabul qilish va Filial bitiruvchilarining attestatsiyasi Universitet tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadigan talablar, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

(3-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Filial bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan Universitetning belgilangan namunadagi diplomi beriladi;

(3-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

Filial faoliyati O'zbekiston Respublikasi va Latviya Respublikasining qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

4. "Riga Nordic University"ning Farg'ona shahridagi filialida mutaxassislarni o'qitish va tayyorlashning asosiy yo'nalish (mutaxassislik)lari [1-ilovaga](#) muvofiq ma'qullansin.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

5. Universitet:

(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini joriy etishga;

mutaxassislarning malakasini oshirishga va Filialning professor-o'qituvchilari tarkibini qayta tayyorlashga;

Filialning kutubxona fondini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik hamda ilmiy-texnik adabiyotlar bilan shakllantirish va to'ldirishga ko'maklashishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2018/2020 o'quv yilida Filialni Farg'ona davlat universiteti binosiga vaqtincha joylashtirish belgilansin.

Farg'ona viloyat hokimligi ikki hafta muddatda Filialga ta'lim jarayonini tashkil etish standartlari va normalariga javob beradigan bino, shuningdek, Filial talabalari va o'qituvchilari yashashi uchun yotoqxonani beg'araz foydalanish huquqi bilan ajratsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Farg'ona viloyati hokimligi:

Filial ta'sis hujjatlarining ishlab chiqilishi hamda o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishida yordam ko'rsatsin;

O'zbekiston oliy ta'lim va ilmiy muassasalarining yuqori malakali o'qituvchilari va mutaxassislarni keyinchalik Filialga ishga jalb qilish uchun saralash tanlovidan o'tkazsin hamda stajirovkasini tashkil etsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

8. "Riga Nordic University"ning Farg'ona shahridagi filiali Vasiylik kengashining (keyingi o'rinlarda — Vasiylik kengashi) shaxsiy tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq ma'qullansin.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

9. Belgilansinki:

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

a) Filialning qabul parametrlari Universitet, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Filial Vasiylik kengashi qarori bilan tasdiqlanadi;

(9-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

b) Filialning faoliyatini moliyalashtirish:

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Universitetning o'z mablag'lari;

(9-band "b" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda maqsadli badallaridan Vasiylik kengashi qarorlari asosida shakllantiriladigan pul mablag'lari;

xalqaro moliya institutlari grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

v) Filialni tashkil qilish, uning moddiy-texnik va o'quv bazasini shakllantirish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni, shu jumladan ta'mirlash-tiklash ishlarini olib borish, bino va inshootlarni zarur mebel, anjomlar, zamonaviy o'quv hamda laboratoriya uskunalari bilan jihozlash, kompyuter va boshqa orgtexnika, kutubxona fondi bilan ta'minlash, shuningdek, Filialdagi mahalliy pedagog kadrlarning stajirovkasi va malakasini oshirish xarajatlarini moliyalashtirish Universitet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

(9-bandning "v" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

Oldingi tahrirga qarang.

g) Universitetdan Filialga jalb qilinadigan professor-o'qituvchilarning xizmat safari xarajatlarini to'lash:

(9-band "v" kichik bandining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

7 kungacha bo'lgan qisqa muddatli xizmat safarlari bo'yicha — Latviyaning qonun hujjatlari bilan oliy ta'lim muassasalari xodimlari uchun belgilangan normalarga muvofiq;

uzoq muddatli xizmat safarlari bo'yicha — o'quv jarayoni ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Filialga o'qituvchilik va ilmiy ishlar uchun taklif qilinadigan xorijiy pedagog kadrlarning yashash hamda transport xarajatlarini tuziladigan shartnomalar asosida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tariflar bo'yicha to'lashga ruxsat etilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

11. Universitetga Filialning bino va inshootlarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilinishini, shuningdek, Filial talabalari va o'qituvchilari yashashi uchun yotoqxona tayyorlanishini 2020/2021 o'quv yili boshlanishiga qadar ta'minlash tavsiya etilsin.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Filial buyurtmanomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy pedagog kadrlar, shuningdek, ularning oila a'zolari uchun kirish vizalari konsullik hamda boshqa yig'imlar undirilmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

13. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Filial buyurtmanomalariga binoan jalb qilinadigan xorijiy professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarga hamda ularning oila a'zolariga davlat boji undirilmasdan, ko'p martalik vizalar berilishi va uzaytirilishini, shuningdek, ularning yashash joyida vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazilishi hamda vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazish muddati uzaytirilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

14. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Filial buyurtmanomalariga binoan Filialni tashkil qilishda va uning faoliyatida ishtirok etadigan malakali xorijiy pedagogik kadrlarni respublikaga jalb etish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomalar berilishi (muddati uzaytirilishi), shuningdek, xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan tasdiqnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini) ta'minlasin.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

15. Filialni jihozlash va uning faoliyatini ta'minlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan zamonaviy o'quv jihozlari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o'quv va ilmiy-uslubiy adabiyot, anjomlar va moddiy-texnika resurslari, shuningdek, avtotransport vositalari 2019-yil 1-iyunga qadar muddatda bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin.

16. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur

qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 26-sentabr,
PQ-3952-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2018-yil 26-sentabrdagi
PQ-3952-sonli qaroriga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

“Riga Nordic University”ning Farg'ona shahridagi filialida kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari (mutaxassisliklari)

(1-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

Bakalavriat yo'nalishlari:

1. Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha).
2. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish.
3. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish.
4. Xizmatlar sohasi (faoliyat turlari va yo'nalishlari bo'yicha).
5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish (tarmoqlar bo'yicha).
6. Informatika va axborot texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha).

Magistratura mutaxassisliklari:

1. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish.
2. Axborot tizimlari.

Izoh. Kadrlar tayyorlash yo'nalishlari (mutaxassisliklari) ro'yxati tashkilotlarning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda filial Vasiylik kengashining qarori bilan to'ldirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2018-yil 26-sentabrdagi
PQ-3952-sonli qaroriga
2-ILOVA

“Riga Nordic University” Farg'ona shahridagi filialining vasiylik kengashi

TARKIBI

1. X.X. Bozarov — Farg'ona viloyati hokimi, *Vasiylik kengashi raisi*
2. A.O'. Aqqulov — O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi raisi, *Vasiylik kengashi raisi o'rinbosari*
3. U.R. Salomov — oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
4. B.J. A'loyev — tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari
5. X.R. Axmedov — Farg'ona viloyati hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari
6. R. Dyakon — “Riga Nordic University” prezidenti
7. H.T. Abduraxmonov — “Riga Nordic University”ning Farg'ona shahridagi filiali rektori
8. Lavozimi bo'yicha — “Riga Nordic University” professori (*kelishuv asosida*)

9. Lavozimi — “Riga Nordic University” professori (kelishuv asosida)
bo'yicha

Izoh. Vasiylik kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga, ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

(2-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.09.2018-y., 09/18/3952/1969-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 07/22/279/0530-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son; 13.04.2026-y., 06/26/58/0342-son)